



ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>

MILITARY TERMS OF PERSIAN LANGUAGE

Khusniddin Inomiddinov

Lecturer

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

Shakhzod Gaybullaev

Student

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: term, theolinguistics, root word, phrase, Islam, Istila, terminology.

Received: 28.05.23

Accepted: 30.05.23

Published: 01.06.23

Abstract: The article is devoted to the analysis of military terms in the Persian language. Each of the terms was studied and analyzed structurally and semantically. At the same time, the opinions of the representatives of the same field about the terms were included.

FORS TILIDAGI HARBIY TERMINLAR HAQIDA

Husniddin Inomiddinov*o'qituvchi*

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

Shahzod G'aybullayev

Talaba

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: termin, teolingvistika, tub so'z, so'z birikmasi, islom, istiloh, terminologiya.

Annotatsiya: Maqola fors tilidagi harbiy terminlar tahliliga bag'ishlanadi. Terminlarning har biri strukturaviy va semantik jihatdan o'rganib chiqildi va tahlil qilindi. Hamda ayni shu soha vakillarining terminlar borasidagi fikr-mulohazalari kiritildi.

ВОЕННЫЕ ТЕРМИНЫ ПЕРСИДСКОГО ЯЗЫКА

Хусниддин Иномиддинов

Преподаватель

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

Шахзод Гайбуллаев

Студент

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые теолингвистика, словосочетание, терминология.	слова: корневое ислам,	термин, слово, истила,	Аннотация: Статья посвящена анализу военных терминов в персидском языке. Каждый из терминов был изучен и проанализирован структурно и семантически. При этом были включены мнения представителей той же области о терминах.
--	-------------------------------------	------------------------------	---

KIRISH

Ilm-fan, texnika taraqqiyoti, ijtimoiy hayotning ko'pchilik sohalaridagi yangiliklar mislsiz darajada yangi so'z va terminlar yaratdiki, bular dunyoning qaysi tilda va qaysi xalq tomonidan yaratilgan bo'lishiga qaramay, fors tili lug'at tarkibining boyishiga, uning rivojlanishiga sezilarli darajada ta'sir qilib kelyapti. Kirib kelgan yangi so'z va terminlar fors tilining o'z ichki imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda qabul qilindi. Bu leksik birliklardan fors tili og'zaki va yozma nutqida faol foydalanib kelinmoqda. Fors tili leksikasida mazkur maxsus sohaga oid terminologik tizim yuzaga kelgan va u amaliyotda qo'llanilmoqda. Shu bois fors tilidagi va yangi kirib kelayotgan harbiy soha terminlarini o'rganish va ularni kursantlar bilan amaliyotga taqdim qilish masalasi dolzarb ahamiyatga ega.

ASOSIY QISM

Hozirgi zamon fors tilidagi harbiy terminlarning lingvistik tahlili nafaqat O'zbekistonda, balki mashhur sharqshunoslik ilmiy maktablariga ega bo'lgan Rossiya, Germaniya, Angliya, va boshqa rivojlangan davlatlarda ham amalga oshirilmagan. Fors ilmiy adabiyotida ham bu mavzuda ilmiy ishlar sanoqli. Biroq Xalqaro tarjimonlar assotsiatsiyasining ilmiy jurnallarida ushbu soha hujjatlari tarjimasining ilmiy va amaliy asoslariga bag'ishlangan ishlar anchagina. Harbiy terminlar hozirgi zamon fors tilining ajralmas va muhim qismi bo'lib, ularning xalqaro siyosiy, iqtisodiy, harbiy, madaniy, ilmiy va ijtimoiy sohalarga bo'lgan ta'siri o'sib bormoqda.

Shu o'rinda termin atamasiga biroz to'xtalib o'tsak. O'zbek tilshunoslarining terminologiyaga bag'ishlangan tadqiqotlarida terminlar fan, texnika, san'at va shu kabi sohalarga oid bo'lgan tushunchalarni ifodalaydigan til birliklari sifatida talqin qilinadi. Jumladan, tilshunoslik terminlari lug'atining o'zidayoq quyidagicha ta'rif qilinadi: "Termin fan, texnika va boshqa sohaga oid narsa

haqidagi tushunchani aniq ifodalaydigan, ishlatilish doirasi shu sohalar bilan chegaralangan soʻz yoki soʻz birikmasidir”.

S. Akobirov esa “termin”ga quyidagicha izoh beradi: “Terminni izohlash uchun, odatda u soʻz bilan qiyoslanadi. Lingvistik adabiyotda, terminologiyaga bagʻishlangan ilmiy ishlarda har qanday termin soʻzdir, lekin har qanday soʻz termin boʻlmaydi, deb eʼtirof qilinadi”.

Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasida “Termin (lotincha *terminus* - “chegara, had”) – bilim yoki faoliyatning maxsus sohasiga doir tushunchani ifodalovchi soʻz yoki soʻz birikmasi. Termin umumxalq tiliga muayyan terminologik tizim orqali oʻtadi, binobarin, termin va umumisteʼmoldagi soʻzlar bir-birini toʻldiradigan leksik birliklardir. Sistem xarakterga egalik, oʻz terminologik maydonida bir maʼnolikka moyillik, his-tuygʻuni ifodalamaslik, uslubiy betaraflik kabilar terminga xos xususiyatlardir”, - deya qayd qilingan.

Termin maʼlum tor sohaga oid soʻz yoki soʻz birikmasi boʻlib, u imkon qadar bir maʼnoga ega boʻlishi lozim. A.V. Superanskayaning fikricha, “termin – muayyan maqsadga qaratilgan tilning eng asosiy tushuncha birligi”dir.

Rus olimlaridan V. Danilenko termin tushunchasini “Termin maxsus tushunchaga ega. Ushbu tushunchaning spesifikasi (ichki tuzilishi) shundaki, uning mazmuni qaysi usul va vositalar bilan berilmasin, oʻzining (maʼno jihatidan) butunligini yoʻqotmasligi kerak”, - deya taʼriflaydi. Taʼriflashning davomida V. Danilenko umumisteʼmoldagi soʻzning termindan farqlanuvchi 3 ta belgisini ajratib koʻrsatib, shular asosida “termin” tushunchasini taʼriflashga bir qator izohlar beradi: “1) termin – bu til birligi (soʻz yoki soʻz birikmasi) umumadabiy, yaʼni ilmiy tilning alohida funksiyaga ega bir turi; 2) termin – maxsus obʼekt yoki tushunchaning nomlanishi; 3) terminga tushuncha bilan bogʻliq mazmunni toʻliq ifodalay oladigan taʼrif lozim”.

Termin soʻzi fors tilida اصطلاح “*estelāh*” deb ataladi. اصطلاح arabcha soʻz boʻlib, maxsus ifoda, termin maʼnosini ifodalaydi. Zamonaviy fors tili harbiy terminologiyasi asosan 1930-yillarda Rizo shoh tomonidan oʻtkazilgan harbiy reformlar natijasida vujudga kelgan neologizmlardan tashkil topgan. 1936-1939- yillarda yangi harbiy nizom qabul qilinib, ilgari arab va turk tillaridan oʻzlashgan terminlar yangi harbiy leksika bilan almashtirilgan (birinchi navbatda harbiy unvonlar va taktik terminlar almashtirildi).

Harbiy terminologiya - bu harbiy soha tushunchalarini anglatuvchi va maxsus doirada muomala qilish uchun qoʻllaniladigan leksik vositalar sistemasidir. Harbiy terminologiya leksikaning alohida bir qatlamini tashkil qilsada, shu bilan birga tilning umumiy leksikasi bilan ham uzviy bogʻliqdir. Harbiy faoliyat, harbiy bilimlar, alohida boʻlimlarga boʻlinishi bois, harbiy terminologiya ham taktik-topografik, harbiy-tashkiliy, harbiy-texnik, qoʻshin turlari hamda qurolli kuchlar terminologiyasiga boʻlinadi. Harbiy sohaning bugungi kunda dinamik ravishda rivojlanib, tez surʼatda oʻrganib boruvchi bilim tarmogʻiga aylanib borayotganligi harbiy terminologiyaning ham kun sayin kengayib takomillashib borishiga turtki bermoqda. Harbiy leksikaning asosiy qismi nizom va harbiy hujjatlarda aks etadi. Ogʻzaki va yozma

harbiy nutq o'zining terminlariga boyligi bilan ajralib turadi. Shu sababli ham, konkret tildagi harbiy terminologiyaning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash va bilish, birinchi navbatda, tarjima amaliyotida juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Birinchi navbatda harbiy terminlar sodda va aniq bo'lishi lozim. Shu sababli ham ko'pgina harbiy terminlar umumqo'llanuvchi leksika asosida yaratilgan.

Bu xususiyatga eng avvalo ommaviy kommunikatsiyani ta'minlovchi terminlar ega bo'ladilar (harbiy hujjatlar, buyruqlar, taktik-topografik, radioelektron kurash va razvedka, havo hujumidan mudofaa va qurol-aslaha terminologiyasi). Zero bu terminlar qisqa, aniq va lo'nda bo'lishi talab etiladi.

Masalan:

rostlan – حبردار (*xabardor*)

erkin - آزاد (*ozod*)

o't och - آتش (*otash*)

chegarachi –(marzbon) مرزبان

to'pchi(*artillerist*) – توپچی (*tupchi*)

razvedka, razvedkachi – اکتشاف (*ekteshof*)

yoki

jangovar guruh – گروه رزمی (*goruhe razmi*)

pioda qo'shinlari – پیاده نظام (*piyodenezom*)

zirhli texnika, zirhli jangovar mashina – زره پوش (*zerhpush*)

avtomat (qurol) - خودکار (*xodkor*)

Ammo har bir konkret tildagi harbiy terminologiya o'ziga xosligi bilan ham ajralib turadi. Masalan, fors tilida boshqa tillarda ekvivalenti bo'lmagan terminlar ham bor va ular ma'lum Eronning harbiy realiyalarini aks ettiradi. Bunday terminlarga misol tariqasida zamonaviy Eron armiyasidagi harbiy unvonlar sistemasini keltirish mumkin. Fors tilidagi mazkur harbiy leksika qatlamining hozirgi kunga qadar na rus tiliga va na o'zbek tiliga mos ekvivalenti mavjud emas.

Masalan:

Leytenant - ستوان (*sotvon*)

katta leytenant - ستوان یکم (*sotvone yekom*)

kichik leytenant - ستوان سوم (*sotvone sevvom*)

brigada generali – سرتیپ (*sartip*)

ikkinchi darajali brigada generali – سرتیپ دوم (*sartip-e dovvom*)

XULOSA

Demak, o'rganib chiqilgan ilmiy adabiyot va maxsus tadqiqot ishlari hozirgi kungacha fors tilidagi ilmiy-texnik terminologiyaga oid bir qator ishlar amalga oshirilganligi, ammo harbiy soha terminlari hali deyarli tadqiq etilmaganligidan dalolat beradi. Bunga dalil isbot qilib aytadigan bo'lsak

hozirda harbiy bilim yurtlari uchun mo'ljallangan biron-bir forscha-o'zbekcha yoki o'zbekcha-forscha harbiy terminlar lug'ati tuzilmagan. Bu sohada hozirda ma'lum mavzularga mo'ljallangan harbiy terminlar lug'atini yaratishga muvafaq bo'ldik xolos. Harbiy terminlarni o'rganish va ularni kursantlar bilan o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda qo'llash dolzarb va qiziqarli masaladir.

Harbiy bilim yurti kursantlariga fors tili mashg'ulotlari o'tish jarayonida fors tilida mavjud faol harbiy terminlarning quruqlik qo'shinlari, harbiy havo kuchlari, harbiy dengiz kuchlari yoki radioelektron kurash va razvedka sohalariga taalluqli terminlari guruhini struktur va leksik jihatlardan tavsiflash, tasniflash, ularning shakllanish, amalda qo'llanilish hamda tilga o'zlashish holatlariga oid masalalarni o'rganishdan va tahlil o'tkazib ularni kursantlarga to'g'ri yetkazib berishni maqsadga muvofiq deb bilamiz. Mazkur maqsadni faqat quruqlikdagi qo'shinlar miqyosida o'rganish va amalda qo'llash uchun quyidagi ishlarni bajarish kerak deb o'ylaymiz:

1. harbiy terminlarning fors tili leksik sistemasidagi o'rni;
2. harbiy terminlarning yasash usullari;
3. harbiy terminologiyaning tashqi omillar hisobiga boyishi;
4. harbiy terminologiyaga oid lug'atlar tahlili va h.k.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Хожиев А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. –Т., 1985. – Б. 88.
2. Ақобиров С.Ф. Тил ва терминология. –Т., 1968. – Б. 4.
3. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 8-т., -“Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2004. – Б. 396.
4. Суперанская А.В. Общая терминология. – М.: Наука, 1989. – С. 14.
5. Даниленко В.П. Русская терминология. Опыт лингвистического описания. – М., 1977. – С. 35, 76.
6. Quronbekov A. Fors tili leksikologiyasi T., 2009
7. Каримов У.М. Учебно-методическое пособие по лингвострановедению. – Т., 2012.